SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 25 - iyun 149-9-124-Q/24 Guliston tuman hokimligi

Transport vositalari harakati xavfsizligini tartibga solish maqsadida 3.27 yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel sanasidagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qaroriga asosan avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infaratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini tartibga solish maqsadida **qaror qilaman:**

1. Tuman Ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 16-maydagi 40/956-sonli hamda Tuman Tibbiyot birlashmasining 2023-yil 15-sentabrdagi 02-499-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Tuman hududidan o‘tuvchi davlat ahamiyatiga ega 4R-26 avtomobil yo‘lining 49-50 km oralig‘iga, mahalliy ahamiyatga ega 4H-647 yo‘lining 0-1 km va Ziyokor ko‘chasini kesishmasiga hamda Ziyokor ko‘chasiga nur qaytaruvchi (diyotli) 3.27 yo‘l belgisini o‘rnatish ishlari yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etilsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Z.Babxanov, tuman Yo‘llardan foydalanish

unitar korxonasi (Z.Jumanazarov), Tuman Tibbiyot birlashmasi(A.Erkaboyev) bilan birgalikda yuqori nur qaytaruvchi (diodli) 3.27 yo‘l belgisini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda o‘rnatishni ta’minlasin.

4. Mazkur qaror Guliston tumani hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Urinbayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **U.Mamadaminov**